

OLIV TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH: TASHKILIIY-HUQUQIIY MEXANIZMLAR

Gulshat Karlibaeva

DSc, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: karlibaeva.gulya@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-8724-9337>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy sharoitlarda oliy ta'lim muassasalari moliyasini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda asosiy prinsiplari tahlil qilinadi. Maqola natijalari oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Asosiy moliyalashtirish manbalari sifatida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari mablag'lar, xususiy sektor ishtiroki va xalqaro grantlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy boshqaruv tizimi, byudjetlashtirish jarayoni va resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

Maqolada O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirishning normativ-huquqiy asoslari tahlil qilinib, moliyaviy mustaqillikni kengaytirish, manbalarni diversifikatsiya qilish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy tizim, oliy ta'lim muassasalar, davlat byudjeti, diversifikatsiya, moliyaviy boshqaruv, grantlar va xomiylik mablag'lari, hamkorlik, investitsiyalar.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ta'lim sifati faqat o'quv dasturlarining mazmuni yoki professor-o'qituvchilar salohiyati bilan emas, balki ushbu jarayonlarni moddiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlay oladigan mustahkam moliyaviy mexanizmlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi qanchalik barqaror moliyaviy asosga ega bo'lsa, uning strategik rivojlanish imkoniyatlari, ta'lim xizmatlari sifati, ilmiy tadqiqotlar ko'lami hamda infratuzilma yangilanishi shunchalik izchil va samarali kechadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy asoslarini o'rganish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va institutsional ahamiyatga ham ega bo'lgan masala hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyalashtirish tizimiga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bilan bir qatorda, nodavlat sektorning faollashuvi, ta'lim xizmatlari bozorining kengayishi, grantlar, kontrakt tushumlari, xalqaro loyihalar va xususiy investitsiyalar kabi manbalar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy imkoniyatlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari faqatgina davlat ko'magiga tayanuvchi tuzilma sifatida emas,

balki o‘z moliyaviy resurslarini rejalashtira oladigan, boshqara oladigan va samarali taqsimlay oladigan mustaqil subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa moliyaviy boshqaruv sifatini oshirish, xarajatlar samaradorligini tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

Oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy asoslari deganda, ularning uzluksiz va natijador faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan moliyaviy manbalar, mablag‘larni shakllantirish va taqsimlash mexanizmlari, hisobot tizimlari, nazorat vositalari hamda moliyaviy rejalashtirish jarayonlarining yaxlit majmui tushuniladi. Mazkur asoslar ta‘lim muassasasining kundalik faoliyati bilan cheklanib qolmay, balki uning istiqboldagi o‘sishi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini ham belgilab beradi. Aynan shu sababli moliyaviy asoslarni chuqur anglash uchun faqat mablag‘ manbalarini sanab o‘tish yetarli emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni, boshqaruv tamoyillari, o‘zaro bog‘liqligi va ta‘lim natijalariga ta‘sirini ham tahlil qilish muhimdir.

Mazkur tizimda davlat byudjeti alohida va ustuvor o‘rin tutadi. An‘anaviy ravishda oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlat byudjeti ta‘lim jarayonini tashkil etish, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega xarajatlarni qoplash uchun xizmat qiladi. Davlat tomonidan har yili shakllantiriladigan moliyaviy reja asosida ajratiladigan mablag‘lar oliy ta‘lim tizimining uzviy ishlashini ta‘minlaydi va ushbu sohaning barqaror faoliyat yuritishida tayanch omil bo‘lib qoladi. Ayniqsa, ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat siyosati sharoitida oliy ta‘limni byudjet hisobidan qo‘llab-quvvatlash inson kapitalini rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qiluvchi investitsiya sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish zamonaviy oliy ta‘lim tizimining barcha ehtiyojlarini to‘liq qamrab olishi har doim ham mumkin emas. Sababi, ta‘lim sifati oshib borishi bilan birga yangi laboratoriyalarni yaratish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj ortib boradi. Shu jihatdan kontrakt to‘lovlari, xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar, grant mablag‘lari, homiylik ko‘magi va xalqaro fondlar bilan hamkorlik kabi qo‘shimcha manbalar oliy ta‘lim muassasasining moliyaviy mustaqilligini kuchaytiruvchi omilga aylanadi. Diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish modeli muassasaga risklarni kamaytirish, byudjetga bog‘liqlikni qisqartirish va o‘z rivojlanish ustuvorliklarini mustaqil belgilash imkonini beradi.

Moliyaviy asoslarning samarali ishlashi ko‘p jihatdan mablag‘lardan foydalanish ustidan nazorat va hisobdorlik tizimining qay darajada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga ham bog‘liq. Oliy ta‘lim muassasasida moliyaviy resurslar oqimini boshqarish, daromad va xarajatlarni muvozanatlashtirish, hisobotlarni shaffof yuritish hamda mablag‘ sarfini belgilangan maqsadlarga mos holda amalga oshirish boshqaruvning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda moliyaviy intizom, ichki audit, rejalashtirish, monitoring va tahlil mexanizmlarining mavjudligi muhim

ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy resurslar miqdori qanchalik katta bo‘lmasin, agar ular oqilona boshqarilmasa, ta’lim sifati va muassasa samaradorligiga kutilgan ta’sirni ko‘rsatmasligi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy asoslarini tadqiq etish, aslida, ta’lim iqtisodiyoti, davlat boshqaruvi va institutsional rivojlanishning kesishgan nuqtasini o‘rganish demakdir. Bu masala orqali ta’lim tizimining nafaqat mablag‘ bilan ta’minlanganlik darajasi, balki ushbu mablag‘larning qanday shakllanishi, qanday boshqarilishi va qaysi natijalarga xizmat qilishi kabi muhim savollarga javob topish mumkin. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish ta’lim tizimining barqarorligi, raqobatbardoshligi va ijtimoiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishda muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonlik olimlardan biri D.A.Raxmonov o‘zining tadqiqotlarida ijtimoiy sohani moliyalashtirish borasidagi takliflarni berib o‘tadi. Oliy ta’lim tizimida davlat xususiy sheriklik amaliyotini joriy etish va moliyalashtirishning yangi manbalarini shakllantirishga erishishni ta’kidlab o‘tadi. Jumladan, byudjetdan tashqari mablag‘lar hajmini va oliy ta’lim qamrovini oshirish lozimligini ta’kidlaydi⁵⁷. A.Azimov oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishning ilg‘or tajribalariga urg‘u berib o‘tadi. Xorijiy tajribalarni o‘rganish natijasida xarajatlarni tizimlashtiradi. Shuningdek, ta’lim shartnoma to‘lovlarini belgilashda qat’iy chegarini belgilamaslikni va uning ma’lum qismini davlat byudjeti hisobidan qoplanishini taklif etadi⁵⁸.

Moliyalashtirishning asosiy usullaridan biri - byudjetlashtirish hisoblanadi. Byudjetlashtirish jarayoni oliy ta’lim muassasalari uchun moliyaviy miqdorlarning taqsimlanishini va qaysi maqsadlarda sarflanishini belgilaydi. Budjetlashtirishning asosiy maqsadi - mablag‘larni to‘g‘ri va samarali taqsimlash, shuningdek, sarflangan mablag‘larning samaradorligini baholash lozim. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish uchun aniq iyerarxik tizim lozim. Bu tizim oliy ta’lim muassasasida moliyaviy jabhadagi barcha jarayonlarning tartibga solinishi, mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi va ularning maqsadli sarflanishini ta’minlaydi. Moliyaviy boshqaruv tuzilmasiga moliya bo‘limi, hisobchi, audit, strategik rejalashtirish bo‘limlari kiradi. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash - institutning uzoq muddatli faoliyati uchun muhim omildir. Buning uchun moliyaviy resurslar samarali taqsimlanishi, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilinishi va yangi innovatsion moliyalashtirish usullari joriy qilinishi kerak.

METODOLOGIYA

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy asoslari, ularning moliyalashtirish manbalari, moliyaviy boshqaruv tizimi va mablag‘larni samarali taqsimlash jarayonlari

⁵⁷ Raxmonov D.A. “O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish” avtoreferat. – Toshkent, TDIU. 2018. 72 b.

⁵⁸ Azimov A.E. Ta’lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi// Zamonaviy ta’lim. 2014. №2. 17-22 b.

muassasaning barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Byudjetlashtirish, grantlar va xomiylik mablag'lari, hamkorlik va investitsiyalarning samarali boshqarilishi oliy ta'lim tizimining muvaffaqiyati uchun kurashda asosiy omillardir. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari moliyasini tashkil qilish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari - bu oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyatini tartibga solish, moliyalashtirish manbalari, mexanizmlari va moliyaviy nazariy asoslariga oid davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar va qarorlarni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalari moliyasini tashkil qilish va rivojlantirishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlar, Prezident qarorlari, Hukumat qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Oliy ta'lim muassasalarining moliyasini tashkil etish va rivojlantirish asosida bir qator muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar turibdi. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini moliyalashtirish va tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining 2004 yilda qabul qilingan "Oliy ta'lim to'g'risidagi" Qonuni - oliy ta'limning huquqiy asoslari, uning tashkil etilishi, moliyalashtirish manbalari va moliyaviy nazoratni belgilaydi. "Xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularni moliyalashtirish to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjatlar - xususiy oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirilishi va davlat bilan hamkorligini ta'minlash lozim.

Har bir oliy ta'lim muassasasining moliyalashtirilishi va uning huquqiy asoslari O'zbekistonda bir qator muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Quyidagi jadvalda O'zbekistonda oliy ta'limning moliyaviy asoslari bo'yicha asosiy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi.

1-jadval

O'zbekistonda oliy ta'limning moliyaviy asoslari bo'yicha asosiy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlari tug'risida ma'lumotlari ⁵⁹

№	Yil	Hujjat nomi	Qisqacha mazmuni
1	2020	“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (O’RQ-637, 23.09.2020)	Ta’limning barcha bosqichlarini, jumladan, oliy ta’limni tartibga soluvchi asosiy qonun. Ta’lim shakllari, tashkil etish tartibi va muassasalarining huquqiy maqomini belgilaydi
2	2020	PQ-4708-son (07.05.2020)	Matematika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari VMQ-241-son (2021) Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholash va nazorat qilish tartiblari
3	2021	VMQ-241-son (2021)	Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholash va nazorat qilish tartiblari
4	2021	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 06.07.2021 yildagi PQ-5172-sonli “Respublika	Davlat universitetlarida bakalavriatga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to’plagan 200 abituriyent uchun Prezident

⁵⁹ Muallif tomonidan amalga oshirilgan.

		oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida'gi Prezident qarori	granti joriy etildi
5	2022	Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)	Oliy ta'lim qamrovini oshirish, sifatini yaxshilash va muassasalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash choralari
6	2025	VMQ-29-son (22.01.2025)	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish chora-tadbirlari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, ularning vakolatlari va ta'lim tizimini boshqarishning asosiy mexanizmlari ko'rsatilgan. Ta'lim faoliyatini amalga oshirish tartibi, ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari qamrab olingan. Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning ijtimoiy himoyasi, ularga yaratiladigan shart-sharoitlar va imtiyozlar belgilanadi. Ta'lim sohasini moliyalashtirish manbalari, davlat buyurtmasi, ta'lim tashkilotlarining iqtisodiy faoliyati va moliyaviy mustaqilligi masalalari qamrab olingan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun o'zida oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga oid muhim qoidalarni o'zida mujassam etadi. Bu qonun ta'lim olishning umumiy huquqi, ta'lim muassasalarining huquqiy holati, ularning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini belgilaydi. Ta'lim sifatini ta'minlash, davlat nazoratini amalga oshirish va ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash tartiblari belgilanadi. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish masalalari bayon etilgan.

Taniqli olimlarimizdan biri X.Rejapov⁶⁰ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida quyida oliy ta'limni rivojlantirish shakllarini bozor talablari asosida tashkil etish va xalqaro oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashuvida milliy an'analaridan kelib chiqishi lozim deb fikr yuritadi. Lekin zamonaviy shart-sharoitda ta'lim sohasini samarali moliyalashtirish masalasi davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. Ta'limni moliyalashtirish nafaqat davlat byudjeti, balki diversifikatsiya qilingan moliyaviy manbalar asosida yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu qonunga ko'ra, ta'lim sohasini moliyalashtirish manbalari ikki yo'nalishda tasniflanadi:

a) Davlat moliyalashtirishi. Byudjet mablag'lari - ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash, infratuzilmani saqlash va rivojlantirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Davlat buyurtmasi - maqsadli ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashda strategik instrument bo'lib, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

b) Nodavlat va alternativ manbalar. To'lov-kontrakt asosidagi mablag'lar - ta'limning bozor tamoyillariga moslashishi, raqobat va sifatni oshirishga xizmat qiladi.

⁶⁰ X.X.Rejapov. Oliy ta'lim tizimida xorij tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 y.

Xorijiy grantlar va loyihalar - ta'lim jarayonini xalqarolashtirish, texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Xo'jalik yurituvchi faoliyat - ta'lim muassasalarining iqtisodiy faolligi orqali moliyaviy barqarorlikka erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonlik olim N.Raxmonov oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllatirib bergan, uning fikricha “ta'lim sifatini oshirishda professor-o'qituvchilar tarkibini darajalarga bo'lish, darajalarga bo'lishda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning bilimini, pedagogik ko'nikmasini hamda ilmiy tadqiqot ishlarida va yangi adabiyotlar yaratishdagi o'rnini hisobga olish, umuman, professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirish zarurligi asoslangan⁶¹. A.Rasulevning fikricha⁶², oliy ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ilg'or oliy ta'lim standartlarini joriy etish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy mustaqillikning joriy etilishi ta'lim muassasalarini ijtimoiy-iqtisodiy tashkilot sifatida faolroq bo'lishga undaydi, resurslardan samarali foydalanish, sifatni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalari ta'riflari va huquqiy asoslari bu mavzudagi kengroq tahlil oliy ta'lim sohasini tashkil etuvchi muhim huquqiy normalarni, printsiplarni va ularning amalga oshirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasasi - bu belgilangan normalar va davlat siyosatidan kelib chiqqan holda ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi, davlat yoki xususiy sektorga mansub bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy sub'yektdir. Uning asosiy vazifasi - oliy ta'lim berish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amalga oshirishdir.

Normativ-huquqiy hujjatlar va me'yoriy ko'rsatmalarga davlat ta'lim standartlari va ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha belgilab qo'yilgan ta'lim standartlari va ularning sifat ko'rsatkichlarini izohlovchi hujjatlar kiradi. Oliy ta'lim muassasalarining litsenziya olish va akkreditatsiyadan o'tish talablari muhim hisoblanadi. Bu jarayonlarda ta'lim muassasasining yuridik va akademik faoliyatining sifat ko'rsatkichlari, kadrlar tayyorlashning darajasi va boshqa muhim jihatlar ko'rib chiqiladi. Oliy ta'lim muassasalari turlari va ularning huquqiy jihatdan davlat oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, u davlat tomonidan tashkil etilgan, davlat byudjeti asosida moliyalashtiriladigan ta'lim muassasalari. Uning huquqiy asosi bo'lib, davlat qonunlari, qarorlari, byudjet moliyalashtirish tartibi va davlat ta'lim siyosati hisoblanadi.

Ularning vazifasi - davlat ehtiyojlari va ustuvor sohalar uchun kadrlar tayyorlashdan iborat. Davlat muassasalari faoliyatida moliyalashtirish va nazorat mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'zini

⁶¹ N.Raxmonov. Oliy ta'lim muassasalari sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash//“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2019 y. 17 b.

⁶² A.Rasulev. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan // O'zbekiston Respublikasining Aktau shahridagi Bosh konsulligi, <https://shorturl.at/BRzEI>

moliyalashtirishga asoslanadi, u yerda o'qish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim muassasalari uchun maxsus litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlari, xususi sektor uchun belgilab qo'yilgan qonunlar mavjud. Bunday muassasalarda ta'lim dasturlari bozor talablariga mos bo'lib, yanada moslashuvchan va raqobatbardosh bo'lishga intiladi. Xalqaro oliy ta'lim muassasalari, odatda, bir necha mamlakatda faoliyat yurituvchi, xalqaro akkreditatsiyaga ega bo'lgan muassasa hisoblanadi. Ular global ta'lim standartlariga asoslanib, sohadagi o'zgarishlarga moslashuvchan bo'ladi. U turli davlatlar o'rtasidagi ta'lim sohasidagi bitimlar va shartnomalar asosida faoliyat yuritadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat oliy ta'lim muassasalaridagi asosiy printsiplar va ularning faoliyatini belgilaydigan huquqiy, iqtisodiy va tashkilotshunoslik xususiyatlarini tahlil qilish zarur. Davlat oliy ta'lim muassasalari davlatning ta'lim sohasidagi asosiy institutlari hisoblanadi va ularning faoliyati mamlakatning umumta'lim siyosatiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari, avvalo, davlat ta'lim siyosati va uni amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarga bog'liqdir. Davlat oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi - jamiyat va iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos kelgan kadrlar tayyorlashdan iborat.

Oliy ta'limning rivojlanish strategiyasi va davlatning bu boradagi huquqiy siyosatini belgilaydi. Bu davlatning ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlarini, ya'ni ilmiy tadqiqotlarni, innovatsion faoliyatni va kadrlar tayyorlashni o'zida mujassam etadi. Davlat oliy ta'lim muassasalari davlat organlari tomonidan tashkil etiladi, moliyalashtiriladi va nazorat qilinadi.

Ta'lim muassasalari o'z faoliyatini belgilangan standartlarga muvofiq olib borishlari shart. Bu standartlar oliy ta'limning sifatini ta'minlashga qaratilgan. Xalqaro oliy ta'lim muassasalari - bu muassasalar, odatda, bir necha davlatlar o'rtasidagi ta'lim hamkorliklari va xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat ko'rsatishga qaratilgan. Ularning maqsadi - global ta'lim tarmoqlariga integratsiyalashish, milliy va xalqaro talablarga mos kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarda ahamiyatli natijalarga erishishdir. Xalqaro oliy ta'lim muassasalari har tomonlama rivojlanishga qaratilgan, hamda turli mamlakatlar va regionlardagi ta'lim modellarini hamkorlik asosida birlashtiradi.

Global standartlarga moslikligi xalqaro oliy ta'lim muassasalari ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va baholash sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat olib boradi. Xalqaro hamkorlik bunday muassasalar ko'pincha bir necha mamlakatlar o'rtasidagi ta'lim hamkorligiga asoslangan bo'lib, birgalikda o'qitish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va tajriba almashishni taqozo qiladi. Ko'p tilli ta'lim halqaro oliy ta'lim muassasalarida, odatda, turli tillarda o'qitish amalga oshiriladi, ko'pincha ingliz tili universal ta'lim tili sifatida qabul qilinadi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni amalga oshirishda xalqaro ta'lim muassasalari yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlarni olib borish va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda oliy ta‘limni moliyalashtirishning normativ-huquqiy bazasi so‘nggi yillarda rivojlanib bormoqda. Biroq, oliy ta‘lim muassasalarining davlat byudjetiga yuqori darajada bog‘liqligi ularning moliyaviy mustaqilligini cheklaydi.

Xalqaro tajriba asosida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali moliyaviy samaradorlik va shaffoflikni oshirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Oliy ta‘lim muassasalarida samarali moliyaviy boshqaruvni ta‘minlash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi hamda xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, faqatgina davlat byudjetiga tayanib qolish oliy ta‘lim tizimining barqarorligini to‘liq ta‘minlay olmaydi. Shu sababli, byudjetdan tashqari mablag‘larni kengaytirish, xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro grant va investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini, jumladan, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, byudjetlashtirish jarayonini takomillashtirish va natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish (performance-based funding) modelini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, shaffoflikni oshirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, ularning tashabbuskorligini rag‘batlantirish va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish mumkin. Normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish esa ushbu jarayonlarning samarali amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Umuman olganda, oliy ta‘lim muassasalari moliyasini boshqarishda kompleks yondashuvni qo‘llash, xalqaro ilg‘or tajribalarni integratsiya qilish va milliy xususiyatlarni hisobga olish orqali tizimning barqarorligi, samaradorligi va global raqobatbardoshligini ta‘minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026). – Toshkent, 2022
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 06.07.2021 yildagi PQ-5172-sonli “Respublika oliy ta‘lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi <https://stat.uz/uz/>

5. Jumayev N.X. O‘zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirishda ta’lim kreditining o‘ziga xos xususiyatlari. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018. 1-10 b.
6. Raxmonov, D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish - Toshkent: TDIU, 2018.
7. Azimov, A.E. Ta’lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi // Zamonaviy ta’lim, 2014. №2. 17-22 b.
8. Karlibaeva G.X. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili // Innovations in Science and Technologies” scientific electronic journal, Vol.2, №1, 2025, 2016-221 b.
9. Rasulev A. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimidagi islohotlar raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. 2020.